


SAMARQAND VILOYATINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar-iyul *)


2019 yilning yanvar-iyul oylarida, viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 7277,0 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 108,9% ga o`sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 1029,9 mlrd. so`mni (o`sish sur`ati 169,5%), kichik tadbirdorlik sub`yektlarining tovar aylanmasi 6247,1 mlrd. so`mni (o`sish sur`ati 102,9%), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 880,9 mlrd. so`m (o`tgan yilning shu davriga nisbatan 92,0 %)ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so`m)



2018 yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o`sish sur`atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o`sish sur`atlari Samarqand va Kattaqo'rg'on shaharlari, Jomboy, Narpay va Samarqand tumanlarida qayd etildi.

*-dastlabki ma'lumot


Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, (%)


Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 169,5 % ga o'sdi va 1029,9 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 14,2 % ulushiga to'g'ri keldi.


Kichik tadbirdorlik sub'yektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 6247,1 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018 yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 102,9 % ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 85,8 % ga teng kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)

2018 yil yanvar-iyul




2019 yil yanvar-iyul



Yirik korxonalar
 Kichik tadbirdorlik

**Chakana savdo aylanmasida
yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulushi, (%)**




Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining ulushi bo'yicha Kattaqo'rg'on shahri (99,9%), Nurobod (99,9%), Bulung'ur (99,8%), Tayloq (99,8%), Qo'shrabot (99,8%) va Narpay (99,7%) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 14,2 % ni tashkil etib, eng katta ulush Samarqand shahrida (38,6%), Samarqand tumanida (34,1%) va Pastdarg'om tumanida (5,2%) kuzatildi.

**Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalarning
chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi**


Hudud nomi	Yirik korxonalar (mlrd. so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik tadbirkorlik (mlrd. so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Samarqand viloyati	1029,9	169,5	6 247,1	102,9
Samarqand shahri	824,7	2,1 m.	1 310,2	88,9
<i>Kattaqo'rg'on shahri</i>	0,5	55,8	412,2	107,7
<i>tumanlar:</i>				
Bulung'ur	0,7	-	410,5	106,1
Jomboy	2,5	-	217,8	108,0
Ishtixon	6,3	-	306,2	105,0
Kattaqo'rg'on	1,5	-	298,0	105,6
Narpay	0,7	-	251,7	107,3
Nurobod	0,4	-	269,5	106,2
Oqdaryo	1,4	-	161,1	104,9
Payariq	1,3	-	276,0	106,6
Pastdarg'om	28,0	64,9	511,6	111,2
Paxtachi	1,0	-	244,2	105,6
Samarqand	143,9	89,7	278,2	120,8
Tayloq	0,5	-	211,3	106,3
Urgut	16,1	3,5 m.	857,6	105,2
Qo'shrabot	0,5	-	231,0	107,0

Hududlarda kichik tadbirkorlik sub'yektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)



Kichik tadbirkorlik sub'yektlari chakana savdo tovar aylanmasi hajmi yuqori bo'lgan Samarqand shahri 1 310,2 mlrd. so'm, Urgut tumani 857,6 mlrd. so'm, Pastdarg'om tumani 511,6 mlrd. so'm, Kattaqo'rg'on shahri 412,2 mlrd. so'm, Bulung'ur tumani 410,5 mlrd. so'm, Ishtixon tumani 306,2 mlrd. so'm, Kattaqo'rg'on tumani 298,1 mlrd. so'm va Samarqand tumani 278,2 mlrd. so'mlik hajm bilan chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Chakana savdo tovar aylanmasida tumanlarning ulushi, (%)



2019 yil yanvar-iyul oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo`yicha aholi jon boshiga 1 907,0 ming. so`mni tashkil qilib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 106,7% ga ko`paydi. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019 yilning yanvar-iyul oylarida o`tgan yilga nisbatan viloyatning ayrim hududlarida o`sish ko`rsatkichlarini tashkil etib, eng yuqori ko`rsatkichlar Kattaqo'rg'on shahri (4 668,9 ming. so`m), Samarqand shahri (3 951,4 ming. so`m) va Bulung'ur tumani (2 240,5 ming. so`m) hissasiga to`g`ri keldi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo`yicha eng kam ko`rsatkichlar Oqdaryo (1040,4 ming. so`m), Tayloq (1 075,8 ming. so`m) va Kattaqo'rg'on (1 117,3 ming. so`m) tumanlarida qayd etilgan. Ushbu ko`rsatkich viloyat hududlari kesimida quyidagicha ko`rinish olgan:

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

Hududlar nomi	Ming. so`m	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Samarqand viloyati	1 907,0	106,7
Samarqand shahri	3 951,4	112,2
Kattaqo'rg'on shahri	4 668,9	105,9
<i>tumanlar:</i>		
Bulung'ur	2 240,5	104,1
Jomboy	1 307,0	106,4
Ishtixon	1 255,6	104,7
Kattaqo'rg'on	1 117,3	104,0
Narpay	1 204,9	105,7
Nurobod	1 828,2	104,1
Oqdaryo	1 040,4	103,8
Payariq	1 130,7	104,6
Pastdarg'om	1 552,7	105,0
Paxtachi	1 728,3	104,0
Samarqand	1 705,9	105,8
Urgut	1 757,1	103,9
Tayloq	1 075,8	104,2
Qo'shrabot	1 796,1	104,8


2019 yilning yanvar-iyul oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,5 % ni tashkil etib, 181,8 mlrd. so`mga yetdi, yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 110,3% o`sishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 90,6% ulushi kichik tadbirkorlik sub'yektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.

**Samarqand viloyatining
ulgurji savdo tovar aylanmasi
(2019 yil yanvar-iyul*)**

Joriy yil boshidan viloyat bo`yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 3 176,3 mlrd. so`mni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 109,6 % ga o`sdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirkorlik sub'yeqtlariga to`g`ri kelib, mazkur hajm 2019 yil yanvar-iyul oylari yakunlariga ko`ra 2 199,6 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 102,6% ni tashkil etdi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 69,3% ni tashkil qilmoqda. Yirik korxonalar esa, 976,7 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 129,6% ga o`sdi.

**Ulgurji savdo tovar aylanmasida
yirik va kichik korxonalarning ulushi, (%)**



*-dastlabki ma'lumot

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel.:71-230-85-23
66-235-65-80**